



O'ZBEK VA TURK MAQOLLARI TADQIQI XUSUSIDA

N.Bakirova

BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrası I kurs magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7532998>

Maqol so'zi arab tilidan o'zlashgan bo'lib, asl ma'noda "kichik asar, so'z, nutq" kabilarni ifoda etadi. Lug'atlarda mazkur so'z "hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda, pand-nasihah mazmuniga ega bo'lgan ixcham, obrazli, tugal ma'noli hikmatli ibora, gap" tarzida izohlanadi[2,569].

Maqollar insoniyatning turmushi, hayot falsafasi o'laroq yuzaga kelgan xalq donoligi voqeligi sanalib, ota-bobolarimizning purma'no, falsafiy iboralari hisoblanadi. Aslida, oqil-u oqila, farzona keksalarimizning deyarli har bir jumlası ibrat, tom ma'nodagi maqoldir. Chunki ularning borliq, bashariyat, hayot, turmush, oila, boringki, barcha-barcha narsa-hodisalar haqidagi qarashlari zamirida chuqur ma'no-ifoda mujassam bo'ladi.

Bugungi kun maqollarining aksariyati xalqimiz bilan birga, og'izdan-og'izga o'tib yetib kelgan. Qolaversa, ma'rifatli donishmandlarimiz xizmatlari natijasida maqollar saqlangan. XI asrning ulkan tilshunos olimi, folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» asari bunga yorqin misol bo'la oladi[1]. «Devon»da turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar ham keltiriladiki, ularning aksariyati bugun ham ayrim o'zgarishlar bilan tilimizda saqlanib qolgan. Shuningdek, Muhammad Sharif Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari tarkibida 300 dan ortiq, Sulaymonqul Rojiyning «Zarbulmasal» asarida 400 dan ortiq maqol mavjud.

Professor To'ra Mirzayevning ma'lumotlariga ko'ra, o'zbek xalq maqollariga muayyan bir tartib berib, majmua va xrestomatiyalarga kiritish, ulardan maxsus to'plamlar tuzish ishlari XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Masalan, venger olimi H.Vamberining 1867-yilda Leypsigda nashr etilgan «Chig'atoy tili darsligi» xrestomatiya-lug'atiga o'zbek folklori va adabiyotining ayrim namunalari qatori 112 ta maqol kiritilgan bo'lib, ularning nemis tiliga tarjimai ham berilgan. Shundan keyin birin-ketin N.Ostroumov (1895), B.Rahmonov (1924), Sh.Jo'rayev (1926), H.Zarifov (1939,1947), B.Karimov (1939), Sh.Rizayev, O'.Azimov, O'.Xolmatov (1941), M.Afzalov, S.Ibrohimov, S.Xudoyberganov (1958, 1960, 1965, 1978), R.Jumaniyozov (1964,1967,1970), E.Siddiqov (1976,1986), B.Sarimsoqov, I.Haqqulov, A.Musoqulov, R.Zarifov (1978), B.Sarimsoqov, A.Musoqulov, M.Madrahimova (1981,1984), Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov (1987,1990,2001), T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musoqulov (1989) kabi folklorshunoslar, fan va madaniyat





xodimlari tomonidan tuzilgan turli xarakterdagi va turli hajmdagi maqollar to'plamlari nashr etildi. M.Abdurahimov, X.Abdurahmonov, M.Sodiqova, H.Karomatov, K.Karomatova, H.Berdiyorov, R.Rasulov kabi olimlarning tilshunoslik va tariimashunoslik yo'nalishidagi to'plamlari yuzaga keldi. Shuningdek, Y.Chernyavskiy, V.Ro'zimatov (1959), N.Gatsunayev (1983,1988), A.Naumov (1985) kabi tarjimonlarning mehnati bilan o'zbek xalq maqollari rus tilida ham ayrim-ayrim to'plamlar sifatida bosilib chiqdi[3;5].

O'zbek xalq maqollarini to'plash, ularni mukammal jildda yig'ish o'tgan asrning 80-yillariga to'g'ri keladi. 1987-1988-yillarda ikki jildda nashr etilgan to'plam o'n uch mingga yaqin xalq maqolni o'z ichiga oladi[3,5].

1990-yilda Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedov tomonidan tuzilgan "Hikmatnoma" maqollar to'plamida 1713 ta maqol va uning izohi hamda variantlari keltirilgan[5]. Ushbu to'plam 2018-yilda "Ma'nolar maxzani" nomi ostida qayta nashr etildi (Nashrga tayyorlovchilar: D.Shorahmedov, M. Aminov). To'plamda 1718 ta maqol keltirilgan[4].

2005-yilda To'ra Mirzayev, Asqar Musoqulov, Bahodir Sarimsoqovlar tomonidan tuzilgan "O'zbek xalq maqollari" to'plami 70 mavzudagi 9000 maqolni o'z ichiga olgan[3]. Mazkur maqollar to'plamini nisbatan yangi nashr sifatida aytish mumkin.

Turk tilida maqollarning to'planishi va o'rganilishi haqida Ulku Kushchu va Huseyin Kushchularning "Ata so'zleri ve deyimler so'zlüğü" ("Maqol va iboralar lug'ati") kitobida turk tilidagi maqollar kitoblari sifatida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan[6]. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida 266 ta (Kaşgârlı Mahmut'un yazdığı (Divan-ı Lûgat-it Türk) adlı sözlükte (266) adet atasözü, 1070), Mavlono Shamsiddinning "Tes'hil" nomli kitobida 698 ta (Mevlânâ Şemseddin'in (Teshil) adlı tıp kitabında (698) adet atasözü, 1449-1480), Ahmet Nazif Efendining "Masallar tarjimasining shartlari" nomli asarida 100ga yaqin (Ahmet Nazif Efendinin yazdığı (Ukud-ül Leâl fi Tercemet-il Emsâl) adlı eserde yüze yakın atalarsözü, 1722), Ahmet Vefik Pashaning "Turkiya ertak va maqollarining muntahoboti" nomli asarida 4300 ta (Ahmet Vefik Paşa'nın (Müntehabât-ı Durûb-i Emsâl-i Türkiye) adlı eserde (4300) atasözü, 1870), Shinasining "Usmonli maqollari" nomli asarida 2500 ta (Şinasi'nin (Durû-i Osmanîye) adlı eserinde (2500) atasözü, 1870), Ebuzziya Tevfikning "Usmonli ertak va maqollari" nomli asarida esa 4000 ta (Ebuzziyâ Tevfik'in (Durûb-i Emsâl-i Osmaniye) adlı kitabında ise (4000) atasözü, 1885), Tekezade M.Saidning "Turkiya ertak va maqollari yoxud ota so'zlari" nomli asarida 5740 ta (Tekezâde M.Said'in (Durûb-i Emsâl-i Türkiye yahut Ata Sözlari) adlı kitabında



5740 atasözü, 1894), Hashim Velining “Otalar so’zi” kitobida 750 ta (Hâşim Veli'nin (Atalar Sözü) kitabında (750) atalarsözü), Sadettin Nuzhet Engun – M.Feridning “Konya viloyati xalq og’zaki ijodi” nomli asarida 2057 ta (Sadettin Nüzhet Engun - M.Ferid'in (Konya Vilâyeti Halkiyât ve Harsiyâtı) adlı eserde (2057) adet söz, 1926), H.Zeynellining “Ozarbayjon maqollari” kitobida 2000 ta (H.Zeynelli'nin ‘Azerbaycan Atalar Sözü’ isimli kitabında (2000) söz bulunmaktadır, 1926), Demir Alpning “Turk maqollari masalalari yoxud otalar so’zi” nomli kitobida 5200 ta (Demir Alp'in (Türk Darb-ı Meseleleri yahut Atalar Sözü) adlı kitabında (5200) tane atalarsözü,1933), Veled Izbulakning “Otalar so’zi” kitobida “Tes’hil” nomli kitobining oxiridagi qo’lyozma risolada 698 ta (Veled İzbulak (Atalar Sözü) kitabında Teshil adlı tıp kitabının sonundaki el yazması risalede (698) adet atasözü, 1936), Sadi G.Kirimlining “Otalar so’zi” nomli kitobida 2742 ta (Sadi G.Kırımlı'nın (Atalar Sözü) adlı kitabında (2742) atalarsözü, 1939), Osman Nuri Peremejining “Otalar so’zi” nomli kitobida 7694 ta maqol va iboralar (Osman Nuri Peremeci'nin (Atalar Sözü) adlı kitabında ise 7694 atasözleri ve deyimleri, 1943), Mutafa Nihad O’zo’ning “Turk maqollari” nomli kitobida 8600 ta (Mustafa Nihad Özön’ün (Türk Ata Sözləri) adlı kitabında (8600) atalarsözü, 1956), Feridun Fazil Tulbentchining “Maqollar” nomli kitobida 15080 ta (Feridun Fazıl Tülbentçi'nin (Ata Sözləri) adlı kitabında (15080) adet, 1963), Milliy Kutubxona Bosh mudirligining “Turk maqollari va iboralari” kitobida 10730 maqol va iboralar (Milli Kütüphane Genel Müdürlüğü'nün (Türk Atasözleri ve Deyimleri) adlı kitabında (10730) adet deyim ve atasözü,1970), O’mer Asim Aksoyning “Maqollar va iboralar lug’ati” nomli kitobida 2110 ta (Ömer Asım Aksoy’un (Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü) adlı kitabında (2110) adet atasözü, 1971), I.Hilmi Soykutning “Turk maqollari xazinası” kitobida 5605 ta (İ.Hilmi Soykut’un (Türk Atalar Sözü Hâzinesi) adlı kitabında (5605) adet atalarsözü,1974), Fethi Go’zler va M.Ziya Go’zlarning “Açıklamalı Türk Atasözleri Sözlüğü” (Turk maqollarining izohli lug’ati) kitobida 1992 ta (H.Fethi Gözler-M.Ziya Gözler'in (Açıklamalı Türk Atasözleri Sözlüğü) adlı kitabında (1992) adet atasözü, 1980) maqol jamlangan.

Berilgan ma’lumotlardan ko’rinadiki, maqol turk tilida 1928-yilgi alifbo va til islohotiga qadar “darb”, so’ngra “ota so’zi” deyiilgan. Shunisi ma’lumki, turk tilida maqol va iboralar, odatda, birgalikda o’rganilganligi kuzatiladi.

Nafaqat turk, balki qirg’iz, qozoq, uyg’ur va shu kabi boshqa turkiy tillardagi maqollar ham qiyosan o’rganilganligi kuzatiladi. Masalan, O’zkul Chobanog’luning “Türk dünyası ortak atasözleri sözlüğü” (Turk olamining o’xshash maqollar lug’ati) kitobida (2004) maqol tasnifi, turlari, o’ziga xos tili va



uslub, maqollardagi mavzu masalalari ham yoritilgan bo'lib, kitob 1000 ta maqolning turk, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, qorachoy-bolqor, qrim-tatar, qo'miq, no'g'ay, o'zbek, tatar, turkman, tuva va yoqut tillaridagi variantlari keltirilgan.

O'zbek tilida ham turk va o'zbek maqollarining variantlari to'planib lug'at holda nashr etilgan. "O'zbek va turk maqollari, iboralari" lug'ati Ibrohim Yo'ldoshev, Tunjay O'zturk, Yuksel O'zturk tomonidan 1998-yilda tuzilgan.

Ma'lumki, turk va o'zbek xalqi uzoq yillar davomida mustaqil holda yashab, turmush tarzini o'zicha belgilab, rivojlanib keldi. Bu esa dastlab umumiy bo'lgan maqollarda turli variantlar paydo bo'lishiga olib keldi. Kechmishdagi bir necha yuz yillik ayriliq va ijtimoiy yashash tarzidagi farqli shartlarning ta'siri ostida har ikki tilda ham bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda yangi so'zlar, so'z birikmalari vujudga keldi. Mualliflar mehnati evaziga manbada o'zbek va turk tillari quyidagicha tasnif etildi:

1. O'zbek maqollari.
2. Turk maqollari.
3. Qiyosiy o'zbek-turk maqollari.
4. O'zbek iboralari.
5. Turk maqollari.

Lug'at o'z o'rnida har ikki til alifbosiga ko'ra tuzilgan. O'zbek maqollari qismida 371 maqol, turk maqollari qismida 798 maqol, qiyosiy o'zbek-turk maqollari qismida 263 maqol keltirilgan. Har bir maqol yoki iboradan so'ngra ularning shu tildagi izohi berilgan bo'lib, u o'quvchining muayyan maqol yoki ibora ma'nosini yanada yaxshiroq anglashiga xizmat qiladi.

Xullas, o'zbek va turk tillaridagi maqollarning o'rganilish tarixi uzoq bo'lib, bu vazifadagi ishlar ko'lami keng tusda davom etyapti, deya olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. 1-3-жилд. – Т., 1960-1963.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Т.: "Ўзб.мил. энкц", 2006-2008.
3. O'zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov. – Т.: Sharq, 2005.
4. Shorahmedov D., Aminov M. Ma'nolar maxzani. –Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2018.
5. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. – Т.: "O'zbekiston sov. ensiklopediyasi", 1990.
6. Ülkü Kuşçu, Hüseyin Kuşçu. Atasözleri ve deyimler sözlüğü. –İstanbulö 2002.
7. Usmonov M. T. Identification and Authentication. International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR) ISSN: 2643-9123 Vol. 5 Issue 1, January - 2021, Pages: 39-47.





THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES

International scientific-online conference



8.Usmonov M. T. Information Protection and Its Types. International Journal of Academic and Applied Research (IJAAR) ISSN: 2643-9603 Vol. 5 Issue 1, January - 2021, Pages: 1-4.

